

**XAYRIDDIN SULTONOV ASARLARIDAGI DINIY LEKSIK
BIRLIKLARNING BADIY IFODA IMKONIYATLARI**

Sohiba Gazibekova

TDYu qoshidagi akademik litsey bosh o'qituvchisi

e-mail: sohibagazibekova@gmail.com

ORCID: 0009-0002-1626-7060

Annotatsiya. Har bir ijodkor badiiy matnda qahramonlar nutqining ta'sirchanligiga, individualligiga va uning ruhiyatini ochib berishga e'tibor qaratadi. Qahramonlar nutqi va estetik ta'sirni kuchaytirish uchun ijodkordan tilning barcha leksik birliklaridan ustalik bilan foydalanish talab qilinadi. Bu borada diniy tushunchalar qahramonlar nutqining tabiiyligi va individualligini ta'minlash maqsadida badiiy matnga olib kiriladi. Ushbu maqolada diniy tushunchalarning badiiy matndagi o'rni, lingvopoetik vosita sifatidagi ahamiyati Xayriddin Sulton asarlari misolida yoritilgan.

Kalit so'zlar: lingvopoetik tahlil, badiiy matn, diniy tushunchani ifodalovchi leksik birliklar, so'z qo'llash mahorati, ifodalilik.

Annotation. Yeach creative artistic text focuses on the impressiveness, individuality of the speech of the heroes and the disclosure of his psyche. To enhance the speech of heroes and aesthetic influence, the creator is required to masterfully use all the lexical units of the language. Religious concepts in this regard are brought into the artistic text in order to ensure the naturalness and individuality of the speech of the heroes. This article covers the role of religious concepts in the artistic text, their importance as a linguopoetic tool on the example of the works of Khairydin Sultan.

Keywords: linguistic analysis, artistic text, lexical units representing religious understanding, vocabulary skills, expressiveness.

Ma'lumki, har qanday badiiy asar tili muayyan umumxalq tilini o'zida aks ettiradi, tildagi o'zgarishlar, evrilishlar, rivojlanishlarning eng xolis ko'zgusi chinakam san'at darajasidagi badiiy adabiyotdir¹.

Dunyo tilshunosligida diniy leksik birliklarning uslubiy, ma'noviy xususiyatlarini o'rganish va tasnif qilish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, Mechkovskayaning "Til va din"², Mingaliyevaning "Tatar diniy-didaktik

¹ Йўлдошев М. Бадий матн лингвопоэтикаси: Монография. – Тошкент: Фан, 2008. – Б. 8.

² Мечковская Н.Б. Пособие для студентов гуманитарных вузов. – М.: Агентство «ФАИР», 1998. – С. 352

adabiyoti tili: islom yurisprudensiyasi traktati “Muxtasar al-Quduri” materialini asosida” deb nomlangan dissertatsiyasi³, R.Nurmuxametova, M.Sattarova, Y.Yelezarovalarning “Diniy semantikali tatar frazeologizmlari” maqolasi⁴, Z.Yaxyayevaning “Qo‘miq tilining diniy leksikasi va frazeologiyasi” mavzusidagi nomzodlik ishi⁵, X.Kurbanovning “Chechen tilining diniy leksikasi” mavzusidagi nomzodlik ishi⁶, Z.Xafizovning “Boshqird tili diniy leksikasining ma’naviy tasnifi”⁷ kabi ishlarni misol sifatida keltirish mumkin.

O‘zbek tilshunosligida ham Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida diniy tushunchalarga berilgan izohlarga tayangan holda bu boradagi kuzatishlar mavjud va qadimiy ekanligi fikrimizning isbotidir. Keyingi yillarda o‘zbek tilshunosligida ham badiiy matnga kirgan diniy tushunchalar turli xil aspektlarda tadqiq qilinganini ko‘rish mumkin⁸.

Xayriddin Sultonovning asarlarida ham diniy tushunchalarni ifodalovchi leksik birliklar uchraydi. Ijodkor diniy tushunchalarni ayni bir diniy termin ma’nosida emas, balki ko‘p o‘rinlarda poetik imkoniyat vazifasini bajaruvchi birlik sifatida qo‘llaydi. Masalan: *Sotib bo‘pti! Sotib bo‘pti! Bekorginalarni aytibsan! Otabuvamizdan qolgan bu hovli! Senga qimorga boy bergin, deb berib qo‘yganimiz yo‘q muni! Qayerdan topib to‘lasang to‘layver, qani, hovliga tekkaningni ko‘ray-chi! Bir tiyinlik haqqing yo‘q, hovli onangning mahriga tushgan!* (“YO, Jamshid!”).

Ma’lumki, mahr bu ayol va erkak o‘rtasida ahdi nikoh qilingan paytda kelimga beriladigan moliyaviy haq hisoblanadi. Odatda turmush qurayotgan paytda erkaklar ayoliga o‘zi yashab turgan uyni mahr sifatida berishadi. “Hovli onangni mahriga tushgan” gapida shu diniy tushuncha ifodalangan. — *Rostdan ham, hovli — onangning mahri, — dedi Orif baqiroq. — Otang rahmatlining vasiyati shundoq bo‘lgan edi.*

Bilamizki, *arvoh* so‘zi faqat diniy tushunchani emas, o‘zbek xalqi mentalitetida turg‘unlashgan tasavvurni ham ifodalaydi. Quyidagi badiiy matn parchasidagi “Akamizning arvohi” birikmasi esa vafot etgan insonga nisbatan katta hurmatni ifodalagan va “...uni bezovta qilish mumkin emas” tarzidagi tabu zamirida yuzaga kelgan. Umuman, vafot etgan odamning arvohi yaxshi va yomon kunlarda xonadon, oila-a’zolari atrofida kezib yuradi, deya tushuniladi. Agar vafot etgan odam

³ Миннегалиева А.М. Язык татарской религиозно-дидактической литературы: на материале трактата по исламской юриспруденции "Мухтасар ал-Кудури": Автореф.дисс. ...канд.филол.наук. – Казан, 2007.

⁴ http://www.dissercat.com/content/yazyk-tatarskoi-religi_ozno-didakticheskoi-litera_tu_ry-na-materiale-traktata-po-islamskoi-yuri#ixzz5b5P QjVGg

⁵ <http://www.dissercat.com/content/religioznaya-leksika-i-frazeologiya-kumykskogo-yazyka#ixzz5jLiCg9rY>

⁶ <http://hdl.handle.net/10995/38999>

⁷ <https://www.openrepository.ru/article?id=675824>

⁸ Mavlonov A. Diniy terminlarning “Saddi Iskandariy dostonida qo‘llanish xususiyatlari” Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. August, 2023. 279-281 betlar; Амантурдиева Ш. Ўзбек диний матнининг функционал-стилистик тадқиқи. Филол. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) дисс. автореф. – Самарканд, 2020, 25-бет.

e'zozlagan, hurmat qilgan odamlarga qandaydir aziyat etsa, uning arvohi chirqiraydi, deyiladi. Bu asarda oilaviy katta muammoning yyechimida "aka arvohi"ning tilga olinishi masalaning yechimini tezlashtirishga xizmat qilgan. Demak, diniy tushunchani ifodalovchi ayrim birliklarning ta'sir doirasi kuchli bo'lib, odamlar qalbidagi diniy e'tiqod va ishonchga tayangan holda muammolarni hal qilishga yordam beradi: *Yendi... O'rinboy ming yomon bo'lgani bilan o'rtada akamizning arvohi bor, – dedi, – Yertami-indin, axir boramiz akamizning oldiga... Mayli endi, yorilgan bosh – yorilgan, qiyin bo'lsa ham, og'irchilikning ozrog'ini olamiz-da bo'yimizga, qolib ketmas, axir.*

Ma'lumki, musulmonlarning jam bo'lib, namoz o'qiydigan ibodatxonasiga nisbatan machit deyiladi. Machit solish nihoyatda katta savob sanalib, machit qurilishiga hissa qo'shgan, unga nimadir ehson qilgan ham jannat bilan mujdalanishiga ishoniladi. Asarda masalaning mohiyati *machit solmoq, yetim boqmoq* tushunchalari bilan qiyoslangan holda ochib beriladi. Birovning aybini berkitish, mushkulini oson qilish ham ana shu qatordagi buyuk savob hisoblanadi. Mazkur diniy tushunchaning tilga olinishida ham masala yechimini qulaylashtirish maqsadi yotadi. Umuman, asarda bir oilada ro'y bergan jiddiy muammoga yechim qidiriladi. Qimor o'ynagan ukaga hamma dashnom beradi, u ahmoqdan olib, ahmoqqa solinadi. Qimorning dahshati, qimor o'ynashning salbiy oqibati va ukaning axloqi yig'ilganlar tomonidan turli darajada tilga olinadi. Biroq bularning hech biri yechim uchun asos bo'lolmaydi. Diniy e'tiqod bilan bog'liq tushuncha va tasavvurlar tilga olinganda esa yig'ilganlar qalbida achinish va hamhollik tuyg'usi paydo bo'ladi. Va yechim tomon boriladi. Masalan, asarda keltirilgan "– *Albatta, xudoyimning dargohi keng*" jumlasini tahlil qiladigan bo'lsak, "xudoning dargohi" tushunchasi islom dini tushunchalariga to'g'ri kelmaydi. Chunki islomda Tangrining makoni yo'q. U lomakondir. Hatto, "Olloh insonga uning shohtomirlaridan ham yaqin ekanligi" aytiladi. Biroq xalq e'tiqodiga ko'ra xudoning o'tiradigan makoni bor va u tepada, qayerdadir, hamma joyda hammani ko'rib kuzatib tura oladi. Bu islomdan avvalgi tasavvurlarning sinkretik ifodasi hisoblanadi. **Yozuvchi** esa xalq tilidagi ana shunday sinkretik ifodalarni asarga olib kirish orqali muammo yechimiga yo'l topadi.

Quyidagi badiiy matn parchasidagi esa *so'fi yuzini yuvmasdan burun* birikmasi yaxlit butun birlik holicha badiiy matnga estetik ma'no yuklayapti. Ijodkor ushbu birlik o'rnida boshqa bir so'zni ham qo'llashi mumkin edi. Ammo ijodkor tomonidan ko'zlangan maqsad yuzaga chiqmasdi. Ya'ni so'fi tahorat olib, odamlarni nomozga chorlashda qanchalik qat'iyat bilan yondashsa, asar qahramonlari zimmasidagi vazifa ham shunchalik mas'uliyatli ekanligiga urg'u berilgan: *Yertasi kuni sahar turib so'fi yuzini yuvmasidan burun Turkmaniston – Yeron chegara manzilida hozir-u nozir bo'ldik.* ("Boburiynoma", 27-bet)

Ma'lumki, **Imoni sust** birikmasi diniy e'tiqodda oqsaydigan insonlarga nisbatan ishlatiladi. Ijodkor esa tilda mavjud bo'lgan bu birlikni badiiy matnga to'g'ridan to'g'ri

olib kirmaydi. Aksincha unga qayta ishlov berib, tarkibini kengaytiradi. Ya'ni insonning fe'l-atvori bilan bog'liq xarakterga qiyoslash orqali badiiy matnga qahramon bilan bog'liq yana bir yangi ma'lumot ham yuklanadi. Bu esa qahramon sajiyasi haqida yanada aniq tasavvur hosil qilishga keng badiiy imkon berganini ko'rish mumkin. Masalan: *Qisiq ko'z, imoni ham harakatlari singari sust Muhammad Do'stini yaxshi xotirlaydi. Bu dog'uli Tanbalni nayrang bilan laqillatib, Shayboniyga o'tib ketgan edi. Asli haromnamak ekan, undan ham qochib, Andijon kentlarida fitna-g'avg'olar qilib yurganida Shayboniy qo'liga tushdi-yu ko'zlarini o'yib oldilar.* (“Boburiynoma”, 27-bet)

Quyidagi badiiy matn parchasida esa *shaytonning so'ziga kirmoq* birikmasi yaxlit bir ma'noni, ya'ni *jahl ustida biron xatti-harakatdan o'zini tiya olmaslik, o'zini bosa olmaslik* ma'nolarini tugal ifodalash uchun xizmat qilgan. Matn davomidagi diniy tushunchani ifodalaydigan yana bir leksik birlik *iblis* so'zi matnni yanada poetik jihatdan boyitgan. Ma'lumki, ushbu so'zning mavjud lug'atlarda “*Odamlarni din yo'ldan ozdiruvchi, yomon yo'lga boshlovchi mahluq; shayton. Ko'chma ma'noda esa, iblisga xos xususiyatdagi odam*⁹ kabi izohlari keltirilgan. Ijodkorning bu kabi birliklarni badiiy matnga olib kirishi qahramonning ayni damdagi holatini aniq tasavvur qilish imkonini bergan. Yana matn ichida qo'llangan *shaq-shaq qaltiramoq* birikmasini individual qo'llanish sifatida baholash mumkin. Chunki jahldan qaltirash holatining “dag'-dag'” shaklida qo'llanishini matnlarda uchratishga odatlanganmiz, ammo ijodkor bu holatni yanada bo'rttirish va poetik jihatdan aktualigini oshirish maqsadida o'zgacha qo'llagan: *Menga qara, bola, – dedim hansirab, tishlarim qisirlab singudek bo'ldi, – meni kim deb o'ylayapsan, maraz!?*

Shodiyor hech narsaga tushunmay, ko'zlarini pirpiratdi: – “Ha, ozmi? Kafedrada har doim shunchaga to'g'rilab berardi-ku?” “Yo'qol ko'zimdan!.. – dedim-u, shaytonning so'ziga kirib unga qo'l ko'tardim. So'nggi lahzada arang o'zimni bosib, shaq-shaq qaltirab qichqirdim: – “Iblis, yo'qol deyman, odamni dindan chiqarma!” (“Ko'ngil ozodador”, 62-bet)

Ijodkor bu kabi diniy tushunchalarni ifodalovchi leksik birliklarni badiiy matnga mahorat bilan olib kirgan va aytmoqchi bo'lgan fikrlarini diniy bilimlarga tayangan holda, mushohada bilan ifodalaydi. Hamda ushbu tushunchaga xos unsurlar orqali fikrlarini dalillab boradi. Fikr tugalligiga ega bo'lish uchun nisbatan yirikroq tanlangan quyidagi matnda ham *xurofot, jaholat, bit'at* kabi tushunchalarning diniy asoslar bilan ifoda etilishi ijodkorning shaxsiyatini, milliy madaniy qarashlarini aks ettiradi: *Tushunib ilg'aganlarimning qisqacha mazmuni quyidagilardan iborat bo'ldi: tariqat pirlarining asosiy maqsadi — payg'ambarimiz alayhissalomning sunnatlarini qayta tiriltirishdir. Yana bir muddaolari esa xurofotga, bit'at, jaholatga qarshi kurash olib borish. Janobi rasululloh aytgan ekanlarki: “Bit'at va xurofotga berilgan kimsalar eng*

⁹ O'zbek tilining izohli lug'ati. II jild, – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022, 461-bet.

yomon kishilardir. Bit'at va xurofotga berilgan inson to uni tark etmaguncha uning qilgan savoblarini Tangri qabul qilmaydi". Tariqat yo 'liga kirishning eng birinchi va asosiy sharti — shaxs o'z qalbini poklamog'i zarur. Chunki qalb Olloh taoloning nazargohidir. Binobarin, Olloh nazargohi hisoblangan qalbni, ko'ngilni pokiza tutmoq, umr bo'yi shunga intilmoq — naqshbandiya ta'limotining mohiyatidir. Xoja Bahovaddin asos solgan va rivojlantirgan bu ilohiy ta'limot «Naqsh band bar dil band», ya'nikim, Olloh nomini qalbingga naqsh aylagil, deya uqtiradi. ("Ko'ngil ozodadur", 62-bet).

Umuman, tahlillar asosida aytish mumkinki, badiiy matnda diniy tushunchani ifodalaydigan birliklar matnning didaktik quvvatini oshiribgina qolmasdan, ijodkorning poetik imkoniyatlarini ham kengaytirgan.

Ijodkor umrning o'tkinchi ekanligini quyidagi badiiy matn parchasida bir devonaning nutqi orqali aniq ekspressiv ifoda etgan. Qahramon nutqidagi oddiy, ammo shafqatsiz haqiqat benihoya hayratlanarli, ishonarli aks etgan. Uning tilidan aytilgan so'zlar uning ruhiy holatini aniq ifodalagan. Devona nutqidagi besh karra takror qo'llanayotgan "ha" jumlasini uning jazavasi qo'ziganini aks ettiradi. Matndagi diniy tushunchalarni ifodalaygan leksik birliklar shu qadar aniq ketma-ketlikda bexato qo'llangani orqali devonaning dinni chuqur anglaganini, hayot haqiqatini teran mushohada qila olishini, aslida devona emas "haqqa erishgan inson" ekanligini ifodalash uchun ijodkorga poetik imkon bergan: — *Bari bir oxiri voy bo'lur, ha! Bilib qo'y, ha, oxiri voy! Umring o'tib ketar, tongla mahsharda yuzing qaro, ha! Mana, bu oy jumadul avval, so'g'in jumadul oxir, so'g'in rajab, so'g'in sha'bon, undan so'g'in ramazon, undan so'g'in shavvol! Ha, bari bir, oxiri voy! Vallohu a'lam bissavob...Ey g'ofil banda umring ham otar sovuq go'rga kirarsan, ilon-chayonga emish bo'lib, tufroqqa qorishgaysan!* ("Saodat sohili", 88-bet)

Xayriddin Sultonov asarlarida aslida diniy tushunchani ifodalovchi leksik birliklar juda ko'p uchraydi. Ammo badiiyat uchun xizmat qiladiganlari, ijodkor aytmoqchi bo'lgan fikrni ixcham tarzda tasvirlash vazifasi yuklanganlari e'tiborlidir. Bulardan biri sifatida qabr mazmunini anglatish uchun qo'llangan **mangu oromgohi** birikmasidir. Shu vaqtga qadar badiiy matnlarda *so'nggi manzil, so'nggi makon* kabi birikmalarni uchratganmiz, ammo ijodkor tomonidan qo'llangan variantda o'ziga xos individuallik ko'zga tashlanadi: "*Sipanzar*" — «Oq tillo» demakdir. Vaqtida juda hafsala va did bilan qurilgan hashamatli mehmonxona boyqushxona bo'lib yotibdi. Qimmatbaho mebellarni chang-tuproq bosgan, yitib-to'zgan, deraza oynalari singan, billur qandillarning simlari shokila bo'lib osilib yotibdi. Supurgi tegmagan xonumon xarob, deganlari ayni shu bo'lsa kerak. Turib-turib, alam qila boshladi. Nahotki, shuncha yo'l yurib, yo'l yursak ham mo'l yurib, endi murodimizga yetdik deganimizda noumid qaytsak? Hazrati Boburning **mangu oromgohi** yonginasida turib, nahot muqaddas maqbarasini ziyorat qila olmasak? Bunday imkoniyat qaytib bizga muyassar bo'ladimi-yo'qmi?

Ijodkor afg'on yurtiga olib borilgan sayohat voqealarini badiiy matnga olib kirish orqali Bobur yashagan davrdagi Kobul bilan qiyoslaydi. "Boburnoma" asarida tilga olingan gullab-yashnagan davri bilan ayni damdagi tahlikali hayot kechirayotgan yurt o'zaro qiyoslanadi. Bu o'rinlarda "Boburnoma" dagi matnlar bilan ijodkor o'z matnini mahorat bilan bog'laydi, natijada har ikki matn badiiy estetik ko'lam kasb etadi. Bobur hukmronligi davridagi farovon hayot va hozirgi tahlikali turmush tarzi yaqqol ko'z oldimizda namoyon bo'ladi. Mana shunday tahlikali tuyg'ular og'ushidagi qahramonga azon ovozi bir lahzalik xotirjamlik baxsh etishini quyidagi matn orqali kuzatish mumkin: *Nihoyat, uyqusiz, dahshatli tun poyoniga etib, tong otdi. Yuraklarga taskin va harorat bag'ishlab azon sadosi yangray boshladi. «Hayya alal falah» — "Najotga kelinglar" degan ilohiy da'vat ayni lahzalarda teran bir ramziy ma'no, yana ham to'g'rirog'i, xaloskorona bir ruh kasb etgan edi.* ("Boburiynoma", 200-bet)

Ma'lumki, badiiy matnda estetik qimmatni unda qo'llangan til birliklarining nimani qanday ifodalashi belgilab beradi. Mavjud lug'atlarda o'lmoq fe'li evfimik mazmun jihatidan turli shakllarda qo'llanadi. Masalan: *vafot etmoq, bu dunyoni tark etmoq, ko'z yummoq* kabi. Ammo Xayriddin Sulton quyidagi matnda bulardan-da ma'no ko'lami keng bo'lgan **tangri rahmatiga bormoq** leksik birligini qo'llaydi. Bu jumla orqali o'z dinida sobitqadam, qadariga ishongan bir inson qiyofasi ko'z oldimizda gavdalanadi. Chunki matn davomida uning uzoq mashaqqatli yo'lga chiqqanidan norozilik, pushaymonlik tuyg'ulari hech bir o'rinda ko'zga tashlanmaydi: *Aytgaysizki: "G'arib dunyoda Ollohning Binoqul degan g'arib bir quli bor edi, otasi navkaringiz edi, u ham sizga dildan ixlos quyib, xizimatingizga o'zini chog'lagan edi. Yetib kelolmadi — yo'lda tangri rahmatiga bordi", degaysiz.* ("Saodat sohili", 306-bet)

Badiiy matn tahlilida diniy leksika bilan bog'liq yana bir jihat borki, oddiy so'zlashuv nutqidagi erkinlikni, tabiiylikni qahramonlar nutqiga olib kirish maqsadida ba'zan ushbu birliklarning qarg'ish, haqorat ma'nosini ifodalovchi undalmalar vazifasida qator qo'llanishini ham ko'rish mumkin. Fikr tugalligiga erishish uchun biroz kattaroq tanlangan quyidagi matn parchasida esa qahramonning qattiq g'azablangan paytdagi holatini badiiy matnda aks ettirish uchun so'zlashuv nutqiga oid bo'lgan chegaralangan birliklar, ya'ni disfimik ifodalarda diniy tushuncha bilan bog'liq leksemalarni ham kuzatish mumkin. Ayniqsa, badiiy matn parchasida haqorot ma'nosini ifodalovchi undalma vazifasida kelgan birliklar asar poetikasida kuchli nafrat ma'nosini ifodalab, o'ziga xos ekspressiv vazifa bajargani yaqqol ko'zga tashlanadi:

– *Gapir, itvachcha! – dedi. Ukasi ilkis boshini ko'tardi., manglayidagi chiziqlar chuqur tortib, xo'mraydi. Anchadan keyin o'ziga o'zi gapirgandek dedi:*

– **Kofir bo'lma**, onang oldingda o'tiribdi, itga ro'para qilgani uyal. Kampir bir oqarib, bir qizardi, elkalari qunishdi. Islomboyning jag'i qaltiradi: – **Kofir**

*bo'imasam, battar bo'lmaymanmi, senga nima, dayus! Sening bu qilmishlaringga kofir tugul, chulchut bo'lib ketar! Uning dag'dag'asiga burchakda yotgan bolalardan biri sachrab uyg'ondi, uyquli ko'zlarini yirtib ochgancha anqayib qoldi. – To'ng'iz terisi nima-yu sen ablahning beting nima?! Yozda “ Bu b..ni ikkinchi og'zimga olsam, yigit o'lay”, deb tavba-tazarro qilganlaring esingdan chiqdimi, **qasamxo'r!** – Islomboy joni jahoni o'rtab baqirarkan, ikki chakagiga burov solingandek, boshiga og'riq qo'zg'alganini sezdi. – Bu kuningdan qasam urib o'lganing yaxshi emasmi, **xunasa!***

Yana yuqoridagi matn orqali shu narsaning guvohi bo'lish mumkinki, ba'zan badiiy matnda so'zlashuv nutqidagi erkinlik sabab aytiladigan ba'zi leksik birlikni matnda ifodalash imkoniyati bo'lmaydi. Bu kabi holatlarda ijodkor bu so'zlarni ko'p nuqta tinish belgisi orqali ifodalab qo'ya qoladi.

Asarda ijodkor tomonidan islomdan boshqa dinlarga oid diniy tushunchalarni ifodalovchi leksik birliklarni ham uchratish mumkin. Masalan: *Boburshunos do'stlarim endigina Afg'oniston hududiga etganlarida Hindistonning Ayodxa shtatida diniy zamindagi qonli mojaro ro'y berdi. Mahalliy mutaassiblar necha asrlardan buyon salobat to'kib turgan Bobur jome masjidini portlatib **yer** bilan yakson qildilar. Diniy nafsoniyati tahqirlangan musulmonlar bunga qarshi norozilik bildirib junbushga keldilar. O'rtada qonli to'qnashuv yuz berib, bir qancha odam nobud bo'ldi. Hindi mutaassiblarning da'volariga ko'ra, bu joyda bir vaqtlar ularning **Quyosh tangrisi sharafiga bunyod etilgan ibodatxona** bo'lib, u keyinchalik musulmon istilochilari tomonidan vayron qilingan va o'rnida mazkur jome masjidi qurilgan ekan* (“Boburiynoma”, 257-bet).

Ijodkor badiiy matnning bu o'rinlarida insoniyat tarixida biz bilmaydigan sirli jumboqlari naqadar ko'pligiga ishora qiladi. Asarda garchand Bobur tarix hukmi bilan bu yurtlarga fotih sifatida lashkar tortib kelgan bo'lsa-da, taqdir taqozosiga ko'ra o'zga yurtni o'ziga vatan tutadi, hind tuprog'iga, hind eliga ham mehr qo'yadi, uni obod va yakdil qilishga intiladi. O'zaro diniy adovatli qabilalarni birlashtirib, markazlashgan ulkan davlatga asos soladi. Ammo baribir o'z diniy aqidalariga sodiq qolgan boshqa din vakillari qalbidagi g'araz asrlar o'tib ham so'nmanini matndagi jummalardan sezish mumkin. Ijodkor bu o'rinlarda tarixiy qahramonlar harakatini ijobiy yoki salbiy baholamaydi, balki kitobxon hukmiga havola etadi.

Yana asar tilida e'tiborni tortadigan bir jihat Allohga murojaat ifodalovchi leksik birliklarning turli ko'rinishlarda namoyon bo'lishidir: *roziq, qodiri lamyazal, tangri, rab, rabbano* kabi. Bu kabi undalma vazifasida kelgan allohga murojaatlar badiiy matnda o'ziga xos estetik ahamiyat kasb etgan.

Demak, badiiy matnda boshqa birliklar kabi diniy tushunchalarni ifodalovchi leksik birliklardan ham estetik ahamiyat, ushbu tushuncha bilan bog'lik emotsional mazmun ko'zda tutiladi. Bunday paytda ijodkor qahramonning o'ziga xos xususiyatini ifodalashni ko'zda tutadi va uning nutqini jonli nutqqa yaqinlashtiradi, yashirin ijodiy

qirrasini namoyon qiladi. Muallifning badiiy niyatiga xizmat qiladigan, o'quvchiga estetik ta'sir etish xususiyatiga ega bo'lgan bu kabi diniy tushunchalarni ifodalovchi leksik birliklar tahlili lingvopoetik ahamiyatga molikdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi: Monografiya. – Toshkent: Fan, 2008. – B. 8.
2. Mechkovskaya N.B. Posobie dlya studentov gumanitarnyx vuzov. – M.: Agentstvo «FAIR», 1998. – S. 352
3. Minnegalieva A.M. Yazyk tatarskoy religiozno-didakticheskoy literatury: na materiale traktata po islamskoy yurisprudensii "Muxtasar al-Kuduri": Avtoref.diss. ...kand.filol.nauk. – Kazan, 2007.
4. Mavlonov A. Diniy terminlarning “Saddi Iskandariy dostonida qo'llanish xususiyatlari” Oriental Renaissance: Innovative, yeducational, natural and social sciences . August, 2023. 279-281 betlar.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. II jild, – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022, 461-bet.
6. Xayriddin Sulton. Boburiynoma. – Toshkent: “Sharq” nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 1997.
7. Xayriddin Sulton. Saodat sohili. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2005.
8. http://www.dissercat.com/content/yazyk-tatarskoi-religi_ozno_didakticheskoi-literatury-na-materiale-traktata-po-islamskoi-yuri#ixzz5b5P QjVGg
9. <http://www.dissercat.com/content/religioznaya-leksika-i-frazeologiya-kumykskogo-yazyka#ixzz5jLiCg9rY>
10. <http://hdl.handle.net/10995/38999>
11. <https://www.openrepository.ru/article?id=675824>